

O'QUVCHILAR O'RTASIDA PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM VAZIFALARI

Yuldoshova Nilufar Xo'jayorovna

Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani

98-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: O'quvchilar o'rtasida sog'lom psixologik muhitni shakllantirish ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u nafaqat bilim olish samaradorligini oshiradi, balki barkamol, ijtimoiy faol va ruhiy jihatdan sog'lom shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Mazkur vazifalarni tizimli va maqsadli amalga oshirish maktab psixologi, pedagoglar hamda ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyatini talab etadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy vaziyat, samarali harakat, psixologik kompensatsiya, pubertat davr, o'smirlik yoshi, impulsiv istaklar, muloqot, ruhiy holat, psixik jarayonlar

KIRISH

Ta'lim muassasalarida sog'lom psixologik muhitni shakllantirish o'quvchilarning shaxs sifatida barkamol rivojlanishi, bilimlarni samarali o'zlashtirishi va ijtimoiy moslashuv jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik muhit — bu o'quvchilar, o'qituvchilar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari o'rtasida shakllanadigan o'zaro munosabatlar, hissiy holatlar va ijtimoiy-psixologik sharoitlar majmuasidir. Ushbu muhit qanchalik ijobiy bo'lsa, ta'lim sifati va tarbiyaviy samaradorlik shunchalik yuqori bo'ladi.

O'quvchilar o'rtasida ijobiy psixologik muhitni shakllantirishning asosiy vazifalaridan biri — o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlarni rivojlantirishdir. Har bir o'quvchi o'z fikrini erkin bildirish, tengdoshlari tomonidan qabul qilinishi va qo'llab-quvvatlanishini his qilishi zarur. Bu holat o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi hamda jamoada faol bo'lishga undaydi.

Yana bir muhim vazifa — konflikt va ziddiyatlarning oldini olish hamda ularni konstruktiv yo'l bilan hal etish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Maktab muhitida kelib chiqadigan turli kelishmovchiliklar o'quvchilarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ularga muammolarni muloqot orqali hal qilish, empatiya ko'rsatish va murosaga kelish madaniyatini o'rgatish zarur.

O'quvchilar o'rtasida psixologik xavfsizlikni ta'minlash ham muhim vazifalardan hisoblanadi. Psixologik xavfsiz muhitda o'quvchi o'zini kamsitilish, masxara yoki zo'ravonlikdan himoyalangan holda his qiladi. Bu esa bulling

(tahqirlash), agressiv xatti-harakatlar va ijtimoiy chetlanishning oldini olishga xizmat qiladi.

Shuningdek, har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olish ijobiy psixologik muhitni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning temperament tipi, qiziqishlari, qobiliyatlari va hissiy holati turlicha bo'lgani sababli ularga individual yondashuv zarur. Bu yondashuv o'quvchining o'z salohiyatini to'liq namoyon etishiga imkon yaratadi.

Jamoda hamkorlik va o'zaro yordam muhitini rivojlantirish ham asosiy vazifalardan biridir. Guruh ishlar, jamoaviy loyihalar va psixologik treninglar orqali o'quvchilar bir-birini tushunish, qo'llab-quvvatlash va umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilish ko'nikmalarini egallaydilar. Bu jarayon jamoa birligini mustahkamlab, ijobiy hissiy muhitni ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya tizimida ma'naviy yetuk insonni shakllantirish bilan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga erishish mumkin. Shu maqsadda, Oliy ta'lim va xalq ta'limlari yoshlarning ma'naviyatini shakllantirishning pedagogik vosita va shakllari ishlab chiqildi. O'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy asoslaridan biri oila, maktab va mahallaning o'zaro birligi, xalqning boy milliy madaniy, tarixiy an'analariga, urf – odatlari, umumbashariy qadriyatlariga asoslangan o'qitish ham o'z natijasini beradi, va shu asnoda ularda bag'rikenglik sifatini shakllantirish ularni kelgusi faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etishini unitmaslik zarur.

Bugungi kunda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash eng ustivor vaifalardan biridir. Ruhiy sog'lom, ma'naviyati yuksak, jismoniy va aqliy yetuk farzandlar yurt kelajagidir. Hozirgi kunda fan-texnikaning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi nafaqat jamiyat hayotiga balki o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti. Buning natijasida o'quvchi yoshlarimizda psixologik tanglik, qiyin vaziyatlar yuzaga kelmoqda. Albatta bunday tanglik holatlari o'quvchining jismoniy, psixik va aqliy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. O'smirlik yoshining klassik tadqiqotiga nazar solsak, unda turli xil nazariyalar, farazlar va fundamental izlanishlar borligining guvoxi bo'lamiz. O'smirlik yoshiga xos yorqin psixologik konsepsiyalardan biri XX asrning boshlarida L.S.Vigotskiy (1930) tomonidan yaratilgan madaniy-tarixiy nazariya bo'lib, unda mazkur yosh simptomatikasi, o'smir psixologiyasidagi barqaror va tarixiy o'zgaruvchanlik, uning fenomenlariga oid ilmiy konsepsiyalarning interpretatsiyasi berilgan. L.S.Vigotskiy ta'lim va taraqqiyotning o'zaro masalasini ko'rib chiqdi. Bunda u quyidagi vaziyatni keltirib chiqardi. Bolaga psixik hayotidagi qiyin shakllar muloqot jarayonida shakllanadi, demak muloqot nisbatan tizimlashtirilgan shaklda – o'qitishda rivojlanishni shakllantiradi, yangi psixik ma'lumotlarni vujudga keltiradi,

oliy psixik funktsiya takomillashtiriladi. Ta'lim psixologiyani shakllanishida muhim rol egallab, uning shakllari esa rivojlanish jarayonida o'zgaradi.

O'smirlik yoshini pubertat davr deb atagan Sh.Byuler o'z ishlarida ushbu davrning biologik mohiyati ochib berilgan. Pubertat davr—bu biologik o'sish davri bo'lib, jinsiy yetilish o'z nihoyasiga yetadi ammo jismoniy rivojlanish davom etadi. U pubertat davrdan oldingi bosqichni insonning bolalik, ushbu davrning tugashini o'smirlik deb ataydi. Sh.Byuler pubertat davrni ikkiga: psixik va jismoniy davrlarga ajratadi. O'smirning yetilishiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar undagi o'zidan o'zi qoniqishi va xotirjamligini izdan chiqarib, uni o'zga jinsni qidirishga undaydi. Biologik yetilish uni izlanuvchan qilib qo'yadi va uning «Men»ida «U» bilan uchrashish istagi tug'iladi. Ya'ni Sh.Byuler psixik pubertatlikni tanadan farqlashga harakat qiladi. Uning fikricha, jismoniy yetilish o'g'il bolalarda o'rtacha 14-16 yosh, qiz bolalarda 13-15 o'smirlik davrida to'g'ri keladi. Albatta, bunday farqlashlarda shahar va qishloq, alohida mamlakatlar va hatto iqlimning ta'siri hisobga olinadi. Pubertatlikning quyi chegarasi 10-11 yosh, yuqori chegarasi 18 yosh bo'lishi kerak. Ushbu davrning negativ xususiyatlari sifatida o'smirning urishqoqligi, injiqligini ifodalovchi jismoniy va ruhiy toliqish, notinch, oson qo'zg'aluvchi holat, yuqori sezuvchanlik hamda qo'zg'aluvchanlikni ko'rsatadi. O'smirlarning o'zlaridan qoniqmasliklari asta atrofdagilaridan ham qoniqmasliklariga sabab bo'lib, boshqacha tus intilishlari bilan uyg'unlashadi va turli salbiy fikrlar shakllanishiga olib keladi.

Ya'ni, o'smirlarda «sust melanxoliya» va «tajovuzkor himoya» shakllanadi. Mazkur davrning ijobiy xususiyatlaridan biri tarzida qandaydir go'zallikning anglangan kechinmalarini, muxabbat tuyg'usini misol qilib keltiradi. O'quvchilarning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar yaxshilik va ezgulik, oliyanoblik, or-nomus, andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topadi. Oila bolani kichik ijtimoiy guruhdan katta ijtimoiy (guruhga) hayotga olib chiqishga qodir muqaddas dargohdir. Maktab o'quvchilarining aqliy va jismoniy jihatdan o'sishi, uning ma'naviy jihatdan taraqqiyoti tarbiya jarayonida sodir bo'ladi. Bolaning jismoniy va aqliy jihatdan o'sib kamolga yetishi oiladagi tarbiyaning qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilishiga bog'liq. Oilaviy tarbiya bolaning taraqqiyot qonunlariga amal qilgandagina ma'lum bir maqsadga erishiladi.

XULOSA

O'smirlik yoshi xatti-harakatlarida suyuq boshlaydigan dunyoqarashlarning, ma'naviy e'tiqod, prinsip qoida, idealarining, baholash mulohazalari sistemasining tarkib topishi davridir. Agar kichik maktab yoshi davrida u yoki kattalarning, ya'ni o'qituvchilar va ota-onalarning bevosita ko'rsatmalari bilan, yoki o'zining tasodifiy va impulsiv istaklari ta'siri bilan harakat qilgan bo'lsa, endilikda uning uchun o'z xatti-harakatlarining prinsipi, o'zining qarashlari va e'tiqodlari asosiy ahamiyat kasb

etadi. Ota-ona va psixologlar shuni e'tiborga olishi lozimki, xuddi ana shu yoshda axloqiy ong taraqqiyotiga zamin qo'yiladi. Psixologlar o'z oldilariga o'smirlar ma'naviy ongining mazmunini, ularning axloqiy tushunchalari va tasavvurlarini o'rganish vazifasini qo'rganlar. Tadqiqotlar umuman o'smirlar ma'naviy ongining yuksak darajada ekanligini ko'rsatadi. O'smirlarning ko'pchilik qismi yoshlarga munosib ma'naviy tushunchalarni to'g'ri tushunadilar. O'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishni oilada ota-ona maktablarda boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. E.G'.G'oziyev. Psixologiya muammolari. Toshkent 1999.
2. R.Y.Toshtemirov, E.G'.G'oziyev Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Toshkent 2004.
3. Z. Nishanova, Z.Qurbonova, S.Abdiyev PSIXODIAGNOSTIKA VA EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYA, «TAFAKKUR-BO'STONI» nashriyoti
4. E.G. G'oziyev. Psixologiya muammolari. Toshkent 1999 yil
4. Ziyo.net